



ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA SHAXS XUSUSIYATLARINING IFODALANISHI

Ergasheva Dilshoda Abdusalomovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika

instituti tillar fakulteti tyutori

Tel: +998939919140

dilshodamuslimabonu@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Erkin Vohidov she'riyatida o'ziga xos tarzda ifodalangan shaxs xususiyatlari yoritilgan. Insoniy fazilatlar falsafiy qarashlar, milliy ruh ufurib turgan misralar, nazokat bilan berilgan ma'no orqali beriladiki, o'quvchiga shoirning ruhi yuqadi. Shoir falsafiy ma'no ifodalashga xizmat qilgan sabr, nafs, aql, ogohlik kabi so'zlar orqali nafaqat bir millatga, balki butun bashariyatga taalluqli xususiyatlarni qalamga oladi.

Kalit so'zlar: she'r, lirika, shaxs xususiyatlari, falsafiy mushohada, shaxs kamoloti.

Lirik asarlar sirasiga kiruvchi she'r hajman kichiqroq bo'lsa-da, ifoda jihatidan undagi mazmun dunyoni yaratib, xalqlarni yashatib, eng so'nggi odamning umrini sarhisob qilishgacha qodir. O'zbek adabiyotining ta'bi nozik, so'zni tanlab, saralab qo'llagan ijodkori Erkin Vohidov o'zidan bebaho lirik meros qoldirdi. Erkin Vohidov ijodida biz o'rni bilan hazil-mutoyibaga moyil qochirimlarni ko'rsak, o'rni bilan falsafiy mazmundagi she'rlarga guvoh bo'lamiz.



Maqolada insoniy fazilatlar va qusurlarni, umuman, shaxs xususiyatlarini tahlil qilish orqali lirikaning g‘oyaviy kuchini, ma’naviy ta’sirini nechog‘lik ahamiyatli ekanligini ko‘ramiz. Erkin Vohidovning “O‘lmas edi balki odamzod” she’rida insonga xos bo‘lgan aql, jahl, sabr, nafs, ogohlik, o‘ylab qadam qo‘yish, ish, ishqal, ko‘z yosh, o‘lim, g‘am, hurmat, fitna, adovat hamda inson uchun ham fiziologik xususiyat ham ruhning tanlovi bo‘lgan o‘lim – tinch dunyoga ketish tasvir vositasi falsafiy mushohada orqali kuchaytirilgan.

Inson o‘lmas o‘ldirmasa g‘am,
Makon qilmas qaro turbatni.
Ko‘rsa agar tirigida ham
O‘lganida topgan hurmatni.
Olam to‘la fitna, adovat,
Mangu qolib netar odamzod?
Bir kun charchab, izlab farog‘at
Tinch dunyoga ketar odamzod.

Shoir nazdida agar insonga xos bo‘lgan aql jahldan, sabr esa nafsdan ustun bo‘lsa inson dunyoda hozirgidan ham ko‘ra ko‘proq yutuqlarni qo‘lga kiritgan bo‘lar edi.

O‘lmas edi balki odamzod,
Bo‘lar edi dunyoga ustun.
Aqli bo‘lsa jahldan ziyod,
Sabri bo‘lsa nafsidan ustun.

Ogohlikni qo‘ldan bermaganda, o‘ylabroq qadam qo‘yganda chohga tushmasdi. Ushbu she’rni o‘qir ekansiz, qadim momolar o‘gitini, ajdodlar tajribasini tinglaganday bo‘lasiz. O‘ylab qadam bosish kerakligi “yetti o‘lchab bir kes” maqoli bilan hamohang.

Ajal deya ataluvchi choh
Ichra zinhor tushmasdi odam,
Bo‘lsa edi ozgina ogoh,



O‘ylabgina qo‘ysaydi qadam.

She’rda tahqir xanjarga, tuhmat esa o‘q va dorga qiyoslangan.

Tahqir zahr-u xanjar ila teng,

Tuhmat ortiq o‘qdan va dordan(5)

Eng dahshatlisi so‘nggi yillarda insoniyat uchun bir-birining tinchligiga rahna solish ko‘paygani quyidagi misralarda shunday ifodalanadi:

Inson o‘lmas biri birining

O‘lishiga bermasa yordam.

She’rni mutolaa qilar ekansiz, inson hayotda baxtli yashamog‘i uchun shaxsiy fazilatlarini kamol toptirishi kerakligi haqida o‘ylab qolasiz.

Erkin Vohidovning “Kamtarlik haqida” nomli she’rida o‘zbek xonadonidagi kunlik ijtimoiy holat betakror tarzda badiiy tasvirlanganki, husni ta’lil san’ati orqali shoir o‘z fikrini chiroyli dalillab, insonga xos go‘zal fazilatni yoqlaydi. Manmanlik, kib-u havoni esa “nega kerak?” deb aytadi

Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,

Piyolaga egilar choynak.

Shunday ekan, manmanlik nechun,

Kibru havo nimaga kerak?

Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam

O‘tma g‘urur ostonasidan.

Piyolani inson shuning-chun

O‘par doim peshonasidan(2)

Xulosa o‘rnida lirikada badiiy jihatdan bo‘yoqdor so‘zlar bilan ifodalangan insoniy fazilatlar, kamchiliklar qisqa va lo‘nda ifodalanishi, tez muddatda xulosa chiqarish imkonini berish, inson hislariga ta’sir qilib, uni bir muddat mushohada yuritishga undashi bilan boshqa janrlardan farqlanib turadi. Lirik asarlar ichida she’r aynan shunday quvvatga ega. Erkin Vohidov she’riyati badiiy zalvorligidan tashqari ma’naviy tarbiya bera olishi bilan



ham o'quvchi kamoloti uchun xizmat qiladi. She'riyat hislarimizning misralardagi tarjimasi. Shoirning lirikasidagi badiiyat ham, haqiqat ham o'quvchini o'ziga jalb qiladi, xulosalar chiqarishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E.Vohidov.Kuy avjida uzilmasin tor. She'rlar va doston.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi,1991.-336 b.
2. E.Vohidov. Saylanma.Umrim daryosi. Sharq.-T.: 2001
3. E. Vohidov. Yoshlik devoni. G'afur G'ulom nashriyoti.-T.:1969
4. Yo'ldosh Solijonov. "Sharq yulduzi" jurnali, 2013 yil, 2-son.
5. <https://tafakkur.net/kamtarlik-haqida/erkin-vohidov.uz>
6. <https://tafakkur.net/olmas-edi-balki-odamzod/erkin-vohidov.uz>